



GLOBAL SUKUK BOZORINING TARKIBIY O'ZGARISHLARI

DSc, dots. **Abrorov Sirojiddin**

"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"

ITM sektor mudiri,

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

"Islom iqtisodiyoti, moliyasi va ziyorat turizmi" kafedrasi dotsenti

s.abrorov@tsue.uz

ORCID: 0000-0001-9559-0231

STRUCTURAL CHANGES IN THE GLOBAL SUKUK MARKET

DSc, assoc. prof. **Abrorov Sirojiddin**

*Head of Sector, Scientific Research Center "Scientific Foundations
and Problems of the Development of the Economy of Uzbekistan",*

*Associate Professor of the Department of "Islamic Economics, Finance and Ziyarah Tourism",
International Islamic Academy of Uzbekistan*

s.abrorov@tsue.uz

ORCID: 0000-0001-9559-0231

Annotatsiya. Mazkur maqolada global sukuk bozorining 2024-yildagi rivojlanish tendensiyalari, emissiya hajmlaridagi tarkibiy o'zgarishlar hamda ESG va barqaror moliyalashtirish instrumentlari bilan integratsiyalashuv jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda qisqa va uzoq muddatli sukuk emissiyalari dinamikasi, xalqaro sukuk bozorining faollashuvi, suveren va korporativ emitentlarning roli hamda yashil va barqaror sukuklarning moliyaviy tizimdagi ahamiyati yoritilgan. Natijalar sukuk instrumentlari islomiy moliya tamoyillari bilan global barqaror investitsiya talablarini uyg'unlashtirayotganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Sukuk, islomiy moliya, ESG moliyalashtirish, yashil sukuk, barqaror moliya, kapital bozori, institutsional investorlar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article analyzes the development trends of the global sukuk market in 2024, structural changes in

issuance volumes, and the processes of integration with ESG and sustainable financing instruments. The study examines the dynamics of short- and long-term sukuk issuances, the increasing activity of the international sukuk market, the role of sovereign and corporate issuers, and the significance of green and sustainable sukuk in the financial system. The findings show that sukuk instruments are increasingly aligning the principles of Islamic finance with global demand for sustainable investment.

Keywords: Sukuk, Islamic finance, ESG financing, green sukuk, sustainable finance, capital market, institutional investors, financial stability.

Kirish. So'nggi yillarda global kapital bozorlarida islomiy moliya instrumentlariga, xususan, sukuk emissiyalariga bo'lgan qiziqish izchil ortib bormoqda. Sukuk an'anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda foizli qarz munosabatlariga emas, balki real aktivlarga egalik, daromadni taqsimlash va risklarni sheriklik asosida boshqarish

tamoyillariga tayanadi. Shu jihatdan u nafaqat shariat talablariga muvofiq moliyalashtirish vositasi, balki infratuzilma, ijtimoiy loyihalar va barqaror rivojlanish maqsadlarini moliyalashtirish uchun muhim kapital bozori instrumenti sifatida shakllanmoqda.

2024-yilda global sukuk bozori murakkab makroiqtisodiy sharoitlarga qaramay nisbatan barqaror rivojlandi. International Islamic Financial Market ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jami global sukuk emissiyalari 205 mlrd AQSH dollariga yetgan. Xalqaro sukuk emissiyalari esa 65,6 mlrd AQSH dollarini tashkil etib, 2023-yildagi 52,7 mlrd AQSH dollariga nisbatan 24,5 foizga oshgan [3]. Ushbu ko'rsatkichlar sukuk bozorining global moliya tizimidagi o'rni mustahkamlanib borayotganini, emitentlar va investorlar tarkibining diversifikatsiyalashayotganini hamda transchegaraviy moliyalashtirishga talab ortayotganini ko'rsatadi [3].

Sukuk bozorining zamonaviy rivojlanishida ESG va barqaror moliyalashtirish mezonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. London Stock Exchange Group ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda ESG sukuk emissiyasi 14 foizga o'sib, 15,2 mlrd AQSH dollariga yetgan. Mazkur ko'rsatkich jami ESG obligatsiyalari emissiyasining 1,8 foizini va jami sukuk emissiyasining 6,1 foizini tashkil qilgan [6]. Bu holat islomiy moliya tamoyillari bilan ekologik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan investitsiya yondashuvlari o'rtasida tabiiy uyg'unlik mavjudligini ko'rsatadi. Ayniqsa, yashil sukuklar qayta tiklanuvchi energiya, transport infratuzilmasi, ekologik loyihalar va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish dasturlarini moliyalashtirishda muhim instrument sifatida namoyon bo'lmoqda [6].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi sukuk bozorida yuz berayotgan tarkibiy siljishlarni, qisqa va uzoq muddatli emissiyalar

dinamikasini hamda ESGga yo'naltirilgan sukuklarning istiqbolli ahamiyatini ilmiy jihatdan baholash zarurati bilan belgilanadi. Islom taraqqiyot bankining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan strategik qayta yo'naltirish dasturida tiklanishni jadallashtirish, kambag'allikka qarshi kurashish, barqarorlikni mustahkamlash va yashil iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [4]. Shuningdek, bankning 2024-yil oktabr oyida 500 mln yevro miqdorida 5 yillik sukuk emissiyasini amalga oshirgani islomiy moliya instrumentlarining xalqaro kapital bozorlarida barqaror moliyalashtirish vositasi sifatidagi o'rni ortib borayotganini tasdiqlaydi [5]. Shu bois sukuk instrumentlarini tadqiq etish nafaqat islomiy moliya nazariyasi, balki global barqaror rivojlanish moliyasi uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Material va metod. Tadqiqotda global sukuk bozorining 2023–2024-yillardagi rivojlanish tendensiyalarini baholash uchun qiyosiy tahlil, dinamik tahlil, tarkibiy tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali 2023 va 2024-yillardagi jami sukuk emissiyalari, xalqaro sukuklar, qisqa muddatli va uzoq muddatli emissiyalar o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. Dinamik tahlil yordamida emissiya hajmlarining o'sish yoki pasayish sur'atlari, bozor faolligining asosiy yo'nalishlari hamda investor talabi bilan bog'liq o'zgarishlar baholandi.

Tarkibiy tahlil usuli sukuk bozorida muddatlar tuzilmasi, emitentlar guruhi, suveren va korporativ ishtirokchilar faolligi hamda ESG va yashil sukuk segmentlarining ulushini o'rganishga xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqotda xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan IIFM, LSEG, Islom taraqqiyot banki, Fitch Ratings va S&P Global Ratings tomonidan e'lon qilingan

hisobotlar, tahliliy materiallar va statistik ko'rsatkichlardan foydalanildi.


Maqolada induktiv yondashuv asosida alohida statistik ko'rsatkichlar va bozor faktlari umumlashtirilib, sukuk bozorining institutsional yetukligi, barqaror moliya bilan integratsiyalashuvi hamda kelgusidagi rivojlanish trayektoriyasi bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi. Ushbu metodologik yondashuv sukuk instrumentlarining nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy-ekologik va strategik ahamiyatini kompleks baholash imkonini beradi.

Natijalar. 2024-yilda global sukuk bozori nisbatan murakkab va o'zgaruvchan makroiqtisodiy sharoitlarga qaramay barqarorlikni namoyon etdi hamda yil yakunida jami 205,1 mlrd. AQSh dollari miqdorida emissiya hajmiga erishdi. Ushbu ko'rsatkich 2023-yilda qayd etilgan 212,0 mlrd. AQSh dollariga nisbatan biroz past bo'lsa-da, pasayish sur'ati keskin emasligi va bozorning umumiy sig'imi yuqori darajada saqlanib qolgani uning institutsional mustahkamligini tasdiqlaydi. Mazkur dinamikani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sukuk bozori ichki va xalqaro talabning uyg'unlashuvi, emitentlar tarkibining diversifikatsiyalashuvi hamda suveren emitentlarning faol ishtiroki hisobiga qo'llab-quvvatlangan. Investorlar tomonidan yuqori qiziqish saqlanib qolgani, ayrim emissiyalarning ortiqcha obuna bilan joylashtirilgani esa likvidlik darajasi va bozorga bo'lgan ishonchning yuqoriligidan dalolat beradi.

Xalqaro sukuk emissiyalari 2024-yilda sezilarli darajada mustahkamlandi va 65,6 mlrd. AQSh dollariga yetdi (2023-yilda 52,7 mlrd. AQSh dollari edi). Ushbu o'sish global moliyaviy sharoitlarning nisbatan

yumshashi, foiz stavkalarining barqarorlashuvi va moliyalashtirish xarajatlarining kamayishi bilan izohlanadi. Xalqaro likvidlikning yaxshilanishi hamda investorlarning xavfni diversifikatsiya qilishga bo'lgan intilishi transchegaraviy sukuk emissiyalariga qo'shimcha impuls berdi. Ayni paytda qisqa muddatli sukuk emissiyalari 72,7 mlrd. AQSh dollaridan 59,1 mlrd. AQSh dollariga qisqardi. Bu holat ichki bozorlardagi faollikning pasayishi, monetar siyosatning qat'iylashuvi hamda emitentlarning uzoqroq muddatli moliyalashtirish instrumentlariga o'tish tendensiyasi bilan bog'liqdir. Natijada sukuk bozorida muddatlar tuzilmasi bo'yicha muayyan transformatsiya jarayoni kuzatildi.

2024-yil sukuk bozori uchun institutsional va tarkibiy jihatdan ham muhim bosqich bo'ldi. Xususi sektor yetakchiligidagi emissiyalar hajmining ortishi, shuningdek davlat va kvazi-davlat subyektlar tomonidan faol chiqishlar amalga oshirilishi bozorning kengayib borayotganini ko'rsatadi. Moliyaviy institutlar, korporativ subyektlar va davlat tashkilotlari sukuk instrumentlaridan infratuzilma loyihalari, budjetni qo'llab-quvvatlash va rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishda faol foydalanib keladi. Jumladan, Malayziya, Bahrayn, Indoneziya, O'mon, Saudiya Arabistoni, BAA, Quvayt, Bruney, Qatar, Pokiston, Bangladesh, Turkiya hamda Islom Taraqqiyot Banki guruhi kabi yirik emitentlar bozorning asosiy drayveri bo'lib xizmat qildi. Ularning muntazam va yirik hajmdagi emissiyalari bozor ishtirokchilari uchun benchmark vazifasini o'tab, ikkilamchi bozordagi likvidlikni ham qo'llab-quvvatladi.



1-rasm. Jahonda sukuk yillik emissiyasi hajmi [2]

Barqaror va ESG mezonlariga bog‘langan sukuklar segmenti 2024-yilda alohida o‘lish sur‘atini namoyon etdi. Global miqyosda yashil iqtisodiyotga o‘tish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va ijtimoiy mas’uliyatli investitsiyalarni kengaytirish tendensiyasi sukuk instrumentlarining mazkur turiga talabni oshirdi. Yashil sukuklar orqali qayta tiklanuvchi energiya, transport infratuzilmasi va ekologik loyihalar moliyalashtirildi. Ijtimoiy va barqaror sukuklar esa sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy infratuzilma loyihalariga yo‘naltirildi. Shu bilan birga, aviakompaniyalar va havo kemalarini lizing asosida moliyalashtiruvchi kompaniyalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsion emissiyalar sektorlararo diversifikatsiyani kuchaytirdi hamda sukuk instrumentlarining qo‘llanish doirasini kengaytirdi.

2023-yilda ichki emissiyalarda kuzatilgan ayrim pasayishlarga qaramay, 2024-yilda umumiy bozor barqarorligi saqlanib qoldi. Bu jarayonda kuchli investor talabi, bank tizimlaridagi likvidlikning yetariligi hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi siyosat muhim rol o‘ynadi. Sukuk instrumentlarining shariat tamoyillariga mosligi, real aktivlar bilan ta’minlanganligi va risklarni taqsimlash mexanizmlariga asoslanishi ularni muqobil moliyalashtirish manbai sifatida

jozibadorligini oshirdi. Xususan, foiz stavkalari o‘zgaruvchan sharoitda islomiy moliyalashtirish instrumentlari risklarni boshqarishning muqobil modeli sifatida baholanmoqda.

Sukuk bozori nafaqat islomiy moliya tizimining tarkibiy qismi, balki global kapital bozorlarining muhim segmenti sifatida shakllanib bormoqda. Uning rivojlanishi makroiqtisodiy barqarorlik, institutsional islohotlar, shaffoflik darajasi va investorlar ishonchi bilan uzviy bog‘liqdir. Kelgusida raqamli texnologiyalarni joriy etish, ikkilamchi bozor infratuzilmasini rivojlantirish hamda xalqaro standartlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish sukuk segmentining yanada kengayishiga xizmat qiladi.

2024-yilda qisqa muddatli sukuk emissiyalari hajmi 59,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2023-yildagi 72,7 mlrd. AQSh dollariga nisbatan 18,7 foizlik pasayishni anglatadi. Mazkur qisqarish qisqa muddatli moliyalashtirish instrumentlariga bo‘lgan talabning nisbatan susaygani, monetar sharoitlarning o‘zgarishi hamda emitentlar tomonidan qarz portfelini qayta muvozanatlashtirish strategiyasi bilan izohlanadi. Ayniqsa, qisqa muddatli likvidlikni boshqarish instrumentlaridan uzoqroq muddatli va barqarorroq moliyalashtirish mexanizmlariga o‘tish

tendensiyasi mazkur dinamikada muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Bunga qarama-qarshi ravishda, uzoq muddatli sukuk emissiyalari 2024-yilda sezilarli o'sishni namoyon etib, 146 mlrd. AQSh dollariga yetgan (2023-yilda 139,3 mlrd. AQSh dollari), ya'ni yilma-yil 4,81 foizga oshgan. Ushbu o'sish emitentlar tomonidan uzoq muddatli kapital jalb qilishga ustuvor ahamiyat berilayotganini, shuningdek infratuzilma, ijtimoiy va strategik loyihalarni moliyalashtirish uchun barqaror moliyaviy manbalarga ehtiyoj ortayotganini ko'rsatadi. Uzoq muddatli sukuklar investorlarga prognoz qilinadigan daromad oqimlarini ta'minlashi, risklarni vaqt bo'yicha diversifikatsiya qilish imkonini berishi hamda aktivlar bilan ta'minlanganligi sababli institutsional investorlar uchun yanada jozibador hisoblanadi.

Munozara. ESG omillari turli bank va moliya hamjamiyatlarida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Global strategik yo'nalishning tan olinishi va bu boradagi xabardorlik ortib borishi natijasida soha barqarorlik yondashuvlarini xalqaro standartlarni belgilash jarayonlari, siyosatni shakllantirish hamda moliyaviy amaliyotlar bilan uyg'unlashtirishga intilmoqda. 2023-yilda Birlashgan Arab Amirliklarida o'tkazilgan COP28 doirasida islom moliyasi va barqaror moliya o'rtasidagi bog'liqlik masalasi ilk bor asosiy kun tartibi darajasiga ko'tarildi. COP28 muhokamalari va bahs-munozaralari davomida avvalgi 24 oy ichida iqlim bo'yicha barcha yo'nalishlarda erishilgan natijalar yetarli darajada sust bo'lgani ko'rsatib berildi. Shu sababli 2030-yilgacha iqlimga oid harakatlarni jadallashtirish bo'yicha umumiy qaror qabul qilindi. COP29 qayta tiklanadigan energiyaga o'tishning ahamiyatini hamda global iqlim maqsadlariga erishishda innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarining rolini alohida ta'kidladi.

Natijada 2030-yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlar uchun har yili 300 mlrd. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratish va 2035-yilgacha ushbu ko'rsatkichni 1,3 trln AQSH dollariga yetkazish majburiyati belgilandi [7].

London Stock Exchange Group — LSEG ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda yashil va barqarorlikka yo'naltirilgan sukuk emissiyasi 15,2 mlrd AQSH dollariga yetgan va bu jami sukuk emissiyasining 6,1 foizini tashkil qilgan [6]. IIFM Sukuk Report 2025 doirasidagi DDCAP tahlilida esa ushbu ko'rsatkich jami sukuk emissiyasining 6,2 foizi sifatida qayd etilgan [2]. Mazkur ko'rsatkich 2024-yilda chiqarilgan jami ESG obligatsiyalarining 1,8 foiziga teng bo'lib, sektor bo'yicha yana bir rekord yil qayd etilgan: yillik o'sish 14 foizni tashkil etgan [6]. Yashil sukuk qiymati ESG sukuk emissiyasidagi ulush sifatida 2023-yildagi 58 foizdan 2024-yilda 31 foizga pasaygan [2]. Barcha aktiv sinflari kesimida esa 2024-yil yakuniga kelib ESGga mos shariat fondlarining umumiy qiymati qariyb 10 mlrd AQSH dollariga yetgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 21 foizga oshganini anglatadi [2]. Garchi asosiy islom fondlari olamining istiqboli pasaygan bo'lsa-da, ESG fondlari 17 foizga o'sdi [2]. Malayziya va Saudiya Arabistoni Islom hamkorlik tashkiloti mamlakatlari ichida ESG shariat fondlari doirasidagi boshqaruv ostidagi aktivlar hajmi bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

ESG mezonlari asosida saralangan shariatga muvofiq aksiyalarning deyarli yarmi IHTga a'zo bo'lmagan mamlakatlar, jumladan, Buyuk Britaniya, AQSH va Hindiston bozorlarida joylashgan bo'lib, AQSHda listing qilingan aksiyalar umumiy hajmning 25 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Malayziya ESG/shariat aksiyalarining musulmon aholisi ko'pchilikni tashkil etuvchi bozorlaridagi yetakchi

mamlakatlardan biri bo'lib, bunday aksiyalar jami hajmning 6,8 foizini tashkil qiladi [2].

Islom taraqqiyot banki ESG maqsadlarini ilgari surish bo'yicha yetakchi ishlarini davom ettirib kelmoqda. Uning "Realigned Strategy 2023–2025" strategiyasi tiklanishni jadallashtirish, kambag'allikka qarshi kurashish, barqarorlikni mustahkamlash hamda yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan [4]. ITBning 2024-yil oktabr oyida amalga oshirilgan 500 mln yevrolik 5 yillik sukuk emissiyasi aynan ushbu maqsadlarni ifodalagan bo'lib, emissiya mablag'lari bankning tiklanishni qo'llab-quvvatlash, kambag'allikka qarshi kurashish, barqarorlikni oshirish va yashil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bo'yicha strategik maqsadlariga yo'naltirilishi qayd etilgan [5]. Mazkur emissiya ITBning 2024-yilda amalga oshirgan navbatdagi benchmark sukuk operatsiyalaridan biri sifatida baholanadi [5].

So'nggi davrda ushbu yo'nalishda davom etayotgan ijobiy sur'atning yana bir misoli sifatida Fitch Ratings kompaniyasining Islom moliyasi bo'yicha global rahbari Bashar Al Nator tomonidan 2025-yil aprel boshida bildirilgan fikrlarni keltirish mumkin. Uning ta'kidlashicha, sukuk bozorida kutilayotgan o'sish kuchli talab va diversifikatsiya maqsadlari bilan izohlanadi. U 2025-yilning birinchi choragida sukuk emissiyasi darajalarida nisbatan barqarorlik kuzatilganini ta'kidlab, mintaqaviy tashabbuslar sifatida Quvaytning yangi likvidlik/qarz to'g'risidagi qonuni, Saudiya Arabistonining davlat qarzini, jumladan, sukuk orqali moliyalashtirishni kengaytirish tashabbusi hamda davom etayotgan yirik sukuk chiqarmalarini qayd etdi. Saudiya Arabistoni 2024-yilda barcha sukuk emissiyalarining qariyb 38 foizini tashkil etganidan so'ng, 2025-yilda ham

asosiy emitentlardan biri sifatida saqlanib qolmoqda [2], [8].

Ushbu jarayonlar barqaror sukukning istiqbolli rivojlanish trayektoriyasini ko'rsatadi. Bu tendensiya islom moliyasi tamoyillari bilan axloqiy va barqaror investitsiya amaliyotlari o'rtasidagi tabiiy uyg'unlik orqali mustahkamlanmoqda [1]. S&P Global Ratings prognoziga ko'ra, barqaror sukuk emissiyasi 2025-yilda 10 mlrd AQSH dollaridan 12 mlrd AQSH dollarigacha bo'lishi kutilmoqda [8], [9].

Xulosa. Umuman olganda, global sukuk bozorining 2024-yildagi rivojlanish dinamikasi ushbu instrumentning xalqaro kapital bozorlaridagi o'rni mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi. Murakkab makroiqtisodiy sharoitlar, foiz stavkalaridagi o'zgaruvchanlik va geoiqtisodiy noaniqliklarga qaramay, sukuk bozori barqarorlikni saqlab qoldi. Bu sukukning nafaqat shariatga muvofiq moliyalashtirish vositasi, balki infratuzilma, ijtimoiy soha va strategik loyihalarni moliyalashtirishga xizmat qiluvchi muhim kapital bozori instrumenti sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Tahlillar sukuk bozorida muddatlar tuzilmasi bo'yicha tarkibiy siljish yuz berayotganini ko'rsatadi. Qisqa muddatli emissiyalar ulushining kamayishi va uzoq muddatli sukuklar hajmining ortishi emitentlar strategiyasida barqaror, prognoz qilinadigan va uzoq istiqbolga yo'naltirilgan moliyalashtirish mexanizmlariga ustuvorlik berilayotganini anglatadi. Bu holat davlat va korporativ sektorning uzoq muddatli investitsion ehtiyojlari hamda institutsional investorlarning real aktivlarga asoslangan instrumentlarga bo'lgan talabi bilan izohlanadi.

Shuningdek, xalqaro sukuk emissiyalarining faollashuvi bozorning global moliyaviy tizim bilan integratsiyalashuvi kuchayayotganini



namoyon etadi. Suveren, kvazi-suveren va korporativ emitentlarning faol ishtiroki benchmark emissiyalarni shakllantirish, ikkilamchi bozor likvidligini oshirish va investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari ESG va barqaror moliyalashtirish mezonlari sukuk bozorining istiqboldagi rivojlanishida muhim omilga aylanayotganini ko'rsatadi. Yashil, ijtimoiy va barqaror sukuklarning kengayishi islomiy moliya tamoyillari bilan ekologik

barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va samarali boshqaruv tamoyillari o'rtasidagi uyg'unlikni tasdiqlaydi. Global sukuk bozori miqdoriy kengayishdan sifat jihatdan chuqurlashuv bosqichiga o'tmoqda. Uzoq muddatli instrumentlar ulushining ortishi, xalqaro emissiyalarning faollashuvi va ESG sukuklar segmentining kengayishi islomiy moliya instrumentlarining global moliyaviy tizimdagi rolini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Capital Market Association, Islamic Development Bank, & London Stock Exchange Group. (2024, April 29). *ICMA, IsDB and LSEG publish guidance on green, social and sustainability sukuk*. International Capital Market Association.
2. International Islamic Financial Market. (2025). *IIFM sukuk report 2025: A comprehensive study of the global sukuk market* (14th ed.). International Islamic Financial Market.
3. International Islamic Financial Market. (2025, November 20). *Record breaking international sukuk issuances hit US\$ 65.6 billion*. International Islamic Financial Market.
4. Islamic Development Bank. (2023, April 5). *IsDB's strategic realignment: A promising strategy for a sustainable future*. Islamic Development Bank.
5. Islamic Development Bank. (2024, October 30). *IsDB taps capital markets for EUR 500 million sukuk*. Islamic Development Bank.
6. Kohli, S., & Al Taitoon, J. (2025, February 17). *Why ESG sukuk has the wind in its sails*. London Stock Exchange Group.
7. Mathiesen, K. (2024, November 23). *Climate summit approves divisive USD300B deal*. Politico. <https://www.politico.com/news/2024/11/23/new-300-billion-deal-climate-talks-00191241>
8. Narayanan, N. (2025, April 21). *Saudi Arabia to drive Islamic finance growth in 2025, S&P says*. Arab News.
9. S&P Global Ratings. (2025, January 13). *Sukuk market: Strong performance set to continue in 2025*. S&P Global Ratings.